

O'zbekiston sug'urta bozorida asosan **ichki manbalar (o'z kapitali, zahiralar, foyda)** ustunlik qiladi, chunki tashqi moliyalashtirish imkoniyatlari hali to'liq shakllanmagan.

Xulosa qilib aytganda, kapital qo'yilmalar nafaqat iqtisodiy faoliyatni rivojlantiruvchi vosita, balki sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy barqarorlik, rentabellik va ishonchlilikning muhim kafolatidir. Shu sababli ularning moliyalashtirish manbalari va buxgalteriya hisobini ilmiy asosda takomillashtirish zarurati hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). 2022 yil 4-aprel.
2. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-598-son 2019 yil 26 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – PQ-4994, 2021-yil 2-fevral.
4. Jo'rayev M.M. Sug'urta faoliyati nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 529 b.
5. Turaev, A. T. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital siyosati. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №3, 2022.
6. Rejda, G. E., McNamara, M. J. Principles of Risk Management and Insurance. – Pearson Education, 2021. – 721 pages.

## **QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI MOLIVAVIY QO'LLAB - QUVVATLASH ZARURIYATI VA AHAMIYATI**

**Xakimov Zafar Ibragimovich**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti*

Jahon aholisining ahamiyatli qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni sotish yoki sotib olish, mahsulotni bozor markazlariga yetkazish, qishloq xo'jaligi xom ashyosidan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni qayta ishlash orqali qishloq xo'jaligida bevosita yoki bilvosita band bo'lib kelmoqda.

"Jahon yalpi ichki mahsulotining asosiy qismi qishloq xo'jaligi sektorida yaratiladi va uning umumiy hajmi deyarli 5,1 trln. AQSH dollari (YAIMning 6,4 foizi)ni tashkil etadi. Bu borada ikkita yirik davlat — Xitoy va Hindiston asosiy ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Xitoyda qishloq xo'jaligini jami moliyalashtirishning 18 foizi davlat tomonidan amalga oshirilsa, AQSHda bu ko'rsatkich 5 foizni tashkil etadi"<sup>327</sup>. Bu esa qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Jahonda qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari, usul va mexanizmlarini takomillashtirish borasida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirish, tarmoq mahsulotlarining bozor narxlari va korxonalar daromadlarini tartibga solishda davlat subsidiyalaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan guruhlarga bo'lgan holda boshqarish, korxonalarini sug'urtalash, risklarni davlat tomonidan xedjirlash,

---

<sup>327</sup> Jahon banki ma'lumotlari; OECD report 2021 Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2021: Addressing the Challenges Facing Food Systems USA, Economic Research Service

davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning individual yondashuvlarini kuchaytirish bu boradagi muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, "mamlakatda tarmoqni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi qabul qilinib, unda 2030 yilgacha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi". Qishloq xo'jaligida erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, paxta va g'alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish, ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligini oshirish, tarmoq korxonalariga investitsiyalarni keng jalb qilish, ularni moliyalashtirishning davlat dasturlari samaradorligini oshirish, bunda hosilaviy qimmatli qog'ozlardan keng foydalanish ushbu yo'nalishdagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini izchil oshirish, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning samarali iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish, shuningdek qishloq xo'jaligi korxonalarini yuqori unumli zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish zarurati mamlakat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan "Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" tashkil etilib, agrar sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur jamg'arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali va o'z vaqtida ijrosini ta'minlash maqsadida uning moliyaviy resurslarini shakllantirishning aniq manbalari belgilab berilgan. Jumladan, paxta tolasini eksport va ichki iste'molchilarga realizatsiya qilishdan tushadigan bo'nak mablag'lari, shuningdek yakuniy hisob-kitoblar natijasida shakllanadigan tushumlar, tasdiqlangan preyskurandagi ulgurji narxlardan yuqori shakllangan mablag'lar, tegishli yil hosiliga oid paxta tolasini sotish yakunlari bo'yicha yuzaga keladigan ijobiy tafovutning to'liq miqdordagi yakuniy summasi jamg'arma mablag'larini shakllantirishning muhim manbalari hisoblanadi.

Bundan tashqari, un va don mahsulotlarini realizatsiya qilish hamda ularni qayta baholash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy tushumlar, shuningdek mahsulotlar eksportidan tushgan valyuta mablag'larini erkin birja savdolari orqali sotishdan olinadigan daromadlar ham jamg'arma resurslarini to'ldiruvchi asosiy moliyaviy manbalar sifatida belgilangan. Ushbu mexanizm qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jamg'armaning muhim vazifalaridan biri qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ekinlar hosildorligini ko'paytirish hamda ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga ko'maklashishdan iboratdir. Shu bilan birga, mazkur moliyaviy institut orqali agrar tarmoqda modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish hamda qishloq xo'jaligi korxonalarining daromadlilik darajasini oshirish uchun zarur iqtisodiy sharoitlarni yaratish imkoniyati kengayadi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasining tashkil etilishi davlatning qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida olib borayotgan islohotlari hamda istiqbolli rivojlanish strategiyalarining muhimligidan dalolat beradi. Biroq qishloq xo'jaligi korxonalariga subsidiya ajratish mexanizmining

yetarli darajada aniq ishlab chiqilmaganligi, ya'ni ushbu dasturlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan subyektlarni aniqlash mezonlarining aniq belgilab qo'yilmaganligi byudjet mablag'laridan samarasiz foydalanish xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli subsidiya ajratish jarayonida shaffof va aniq iqtisodiy mezonlarga asoslangan mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreditlar va subsidiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlashda muhim moliyaviy instrument sifatida xizmat qilishi bilan birga, ularning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Xususan, uzoq muddat davomida moliyaviy ko'makning yuqori darajada saqlanib qolishi qishloq xo'jaligi korxonalarining subsidiya va imtiyozli kreditlarga haddan tashqari bog'lanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada, korxonalar tomonidan mustaqil rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va bozor sharoitlariga moslashuvchan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari sustlashishi ehtimoli yuzaga keladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirish jarayonida turli moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarining muqobil variantlarini kompleks tahlil qilish hamda eng samarali shaklini tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlab, ajratilayotgan moliyaviy yordamning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va investitsion faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining –O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida* // gi PF-5853-son farmoni. 2019 yil 23 oktabr.

2. *Alimardonov I.M. Kichik biznes sub'ektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 29.*

3. *Bondarenko V.S., Shishkina D.A. Neobxodimost i napravlenii gosudarstvennoy finansovoy podderjki selxozpredpriyatiy rossiyskogo APK//Vestnik SGSEU. – Saratov, 2018. –№ 5. – S. 131-135.*

4. *Burmistrov N.A. Formirovanie modernizirovannoy strategii razvitiya predpriyatij piucevoy promyshlennosti. Avtoref. diss. na soisk. uch. st. k.e.n. – Saratov, 2011. – S. 20.*

5. *Xakimov Z.I. Uy xo'jaligida baliq yetishtirishni moliyaviy qo'llabquvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish. International cjnference on learning and teaching, 2022 , №5; 97-101- betlar.*

## **SOTSIAL DISKONT STAVKASINING ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMIDAGI ROLI**

**Erkaboyev Abdulaziz Baxromovich**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ,  
Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasida o'qituvchisi*

**Erkaboyeva Yulduz Baxromovna**

*“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti,  
Xalqaro menenejment fakulteti talabasi*

Ma'lumki, so'nggi yillarda iste'molchilar ham, ishlab chiqaruvchilar ham yashil, intensiv, tejamkor, inklyuziv – umuman olganda barqaror iste'mol va ishlab chiqarishga